



Methodological principles for improving the types of speech activity of students in financial and economic areas

Umida YULDOSHOVA¹

Tashkent Financial Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2023

Received in revised form

15 December 2023

Accepted 20 January 2024

Available online

25 February 2024

Keywords:

student,
principle,
teaching,
didactic,
methodical.

ABSTRACT

This article discusses opinions on the role and significance of methodological principles in improving students' speech activity. Examples of scientists' opinions and methodological principles are also given.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss1-pp122-126>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Moliya-iqtisod yo'nalishi talabalarining nutq faoliyati turlarini takomillashtirishning metodik tamoyillari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

talaba,
tamoyil,
o'qitish,
didaktik,
metodik.

Ushbu maqolada talabalarining nutq faoliyati turlarini takomillashtirishda metodik tamoyillarning o'rni va ahamiyati haqida fikrlar berilgan. Shuningdek, olimlarning fikrlaridan va metodik tamoyillardan namunalar keltirilgan.

¹ PhD, Senior Lecturer, Foreign Languages Department, Tashkent Financial Institute.

Методические принципы совершенствования видов речевой деятельности студентов финансово-экономического направления

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

студент,
принцип,
обучение,
дидактический,
методический.

В данной статье обсуждаются мнения о роли и значении методических принципов в совершенствовании речевой деятельности студентов. Также приведены примеры мнений ученых и методических принципов.

KIRISH

Ta'lim tizimida modernizatsiya davlat va jamiyatning malakali kadrlarga, shaxslarning esa sifatli ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, amalga oshiriladi. Ta'lim amaliyotida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi hamda kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, OTMlarda ta'lim olayotgan talabalarning ingliz tilini o'rganish jarayonidagi kommunikativ faoliyatga yo'naltirilgan kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Talabalarga nutq faoliyati turlarini til leksik, grammatik, fonetik materiallarini metodik tamoyillar orqali o'rgatish amalga oshiriladi. Chet tilini o'qitish jarayonida metodik tamoyillar o'z o'rnida alohida va muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limni tadqiq etadigan fanlarda (ta'limshunoslik va xususiy metodika) "tamoyil" termini ham o'ziga xos tushunchalarni ifodalaydi. Tabiatda tamoyillar yo'qligi, faqat qonunlar borligi haqida bilish nazariyasida ma'lumotlar keltiriladi. "tamoyil"- asos bo'ladigan yo'l-yo'riq, qonun-qoida ma'nosida ishlatiladi [1;187]. Ta'limda xilma-xil tamoyillar ketma-ketligi bayon etiladi. Chet tili o'qitish metodist olimlari, ta'limshunoslarning tadqiqotlaridan samarali foydalanadi, biroq ularning borligi o'zgarishsiz, shunchaki tan olinmaydi, ya'ni o'quv predmetini hisobga olib, ularni tatbiq etishadi. Chet tilini o'qitish metodikasida turli mualliflar tomonidan bir necha ilg'or tamoyillar olg'a surilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Prof. Y.I.Passovning fikricha "tamoyil – o'qitish jarayoni deb atalmish binoning poydevoridir. Noto'g'ri tuzilgan, noaniq o'qitish tamoyillari ko'p holatda butun o'quv jarayonini xavf ostiga qo'yadi". E.I.Passov chet tilini o'rgatish tamoyillari iyerarxiyasini tuzdi: birinchi darajali umumiy didaktik tamoyillar; ikkinchi darajali umumiy metodik tamoyillar; uchinchi darajali xususiy metodik tamoyillar; torroq ta'lim sohasiga taalluqli to'rtinchi darajali tamoyillar [2].

Chet tilini o'qitishning barcha tamoyillarining asosiy maqsadi ulardan amalda foydalana bilishdir. Taniqli mashhur nemis metodist pedagogi A.Disterveg mavzuning aniqligi bilan cheklanmaydi. U o'rganuvchilarga rasmlar, analoglar, xotiralardan foydalanishni taklif qiladi. A.Disterveg quyidagi tamoyillarga amal qilgan. Uning fikricha:

1. Ko'rinish-misollardan qoidalarga, aniq g'oyalardan, so'zlarga o'tish kerak. Ushbu holatda: a) yaqindan uzoqqa; b) oddiydan murakkabgacha; v) osonroqdan qiyinroqqa; g) ma'lumdan noma'lumga.

2. Materialni ongli ravishda o'zlashtirish tamoyillarini misol keltiradi.

3. Yosh xususiyatlarini (o'rganuvchi o'rganishga qodir bo'lmagan mavzuni hech qachon o'rgatish kerak emasligi) va individual xususiyatlarni hisobga olish.

4. Tizimli o'qitish – Har bir materialni ma'lum bosqichlarga va kichik tayyor qismlarga bo'lish.

5. Takrorlash – talabalar o'rganganlarini unutmasliklariga ishonch hosil qilish.

P.B. Gurvichning aytishicha: “Agar maqsad so'zlarni jummalarda (nutqda) ishlatish bo'lsa, unda bu istisno hisoblanmaydi, aksincha, alohida so'z bilan ma'lum bir ishni nazarda tutadi; agar maqsad til materialini retseptiv malaka darajasiga qadar o'zlashtirish bo'lsa, bu maqsadga reproduktiv va mahsuldor mashqlar orqali erishish mumkin...”. P.B. Gurvich tamoyillarni 4ta turga ajratadi [3;32-37]; 1. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz; 2. Ongli va avtomatlashtirilgan harakatlar; 3. Yodlangan va ijodiy;

4. Yo'naltirilgan va erkin harakat.

Xorijiy metodistlar Larsen-Friman va S.L. Makkey chet tilini o'qitishda lingvistik, didaktik va psixologik omillar muhim ahamiyatga ega, deb ta'kidlaydilar. Larsen-Friman metodikaning asosiy jihatlariga asoslanib, quyidagi tamoyillarni ajratib ko'rsatadi:

– lingvistik tamoyillar – chet tilini o'zlashtirishda ona tilining kommunikativ kompetensiyasini hamda o'rganilayotgan tilni oraliq til tizimi sifatida o'zlashtirishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

– kognitiv tamoyillar – ichki motivatsiyadan foydalanish, nutq birliklarini avtomatlashtirish va talabaning shaxsiy hissasidan foydalanish prinsipi;

– emotsional-psixologik tamoyillar (affektiv): lingvistik “men” (language ego) tamoyili, o'rganilayotgan til davlat madaniyati va tilini o'zaro bog'liq holda o'zlashtirish (til – madaniyat aloqasi) [4;55].

O'rganish tamoyili atamasi o'qituvchining chet tilini o'qitish jarayonida ustun rol o'ynashini anglatadi, bu esa o'qitishning gumanistik yo'nalishiga biroz ziddir. Shu bilan birga, o'quv jarayoni o'qituvchi faoliyati va talabaning faoliyatini o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. Ammo jarayonni aniq shakllantirilgan qoidalar, ya'ni talaba bilan o'zaro munosabat jarayonida tayanishi kerak bo'lgan tamoyillar asosida shakllantirmay, tashkil qilib bo'lmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Keyingi yillarda faqat chet tili o'qitishga xos bo'lgan kommunikativlik, ta'limning og'zaki nutqqa asoslanishi, differensiyalashtirib o'qitish, til materialini kompleks tashkil qilish kabi tamoyillar yuzaga keldi. Ayni paytda didaktika tomonidan ilgari surilgan ongliklik, aktivlik, ko'rgazmalilik, ta'lim jarayonini motivlashtirish kabi tamoyillar chet tili o'qitishda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki har qanday aqliy harakatni amalga oshirish, fikrlashdan praktika-amaliyotga o'tish orqali vujudga keladi. Shuning uchun hozirgi zamon chet tili o'quv dasturlari va o'quv qo'llanmalarida o'quvchilarning aqliy faoliyatini shakllantirishga muhim ahamiyat berilyapti. Materialni onglik ravishda o'zlashtirishga tillararo interferensiya hodisasi salbiy ta'sir qiladi.

O'qitish tamoyillari deganimizda, o'qituvchi dars jarayonida qo'llashi lozim bo'lgan qonun-qoidalarini tushunamiz. Chet tili o'qitish metodikasi eng avvalo didaktika tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi umumdidaktik tamoyillariga tayanadi: 1) ta'limning tarbiyaviyligi tamoyillari; 2) ilmiylik va tushunarlilik tamoyillari; 3) ongliklik tamoyili; 4) faollik tamoyili; 5) tizimlilik va izchillik tamoyili; 6) ko'rsatmalilik tamoyili.

1) Ta'limning tarbiyaviyligi tamoyili – yosh avlodni har tomonlama kamolotga yetkazishni nazarda tutadi. Til o'rganish jarayonida talabalarga milliy g'oya, ona Vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat, kishilarga hurmat, ehtirom, yaxshilik, odillik, yuksak insoniy

fazilatlar egasi bo'lish kabi ijobiy xususiyatlar singdiriladi. Buning eng qulay va barqaror shakllaridan biri didaktik materiallar tegishli mazmunga ega bo'lgan matnlarning tanlanishi, saralanishi hamda talabalarga yetkazilishini ko'rsatish mumkin [5; 772].

Barcha fanlar o'z imkoniyati doirasida o'quv adabiyotlarida berilgan matnlardan ham ta'limiy ham tarbiyaviy maqsadda foydalanib, ta'limning tarbiyaviyligi tamoyiliga to'liq amal qiladi. "Talaba topshiriqlarni bajarish jarayonida kuzatish, qiyoslash, ijodiy tafakkurni ishga solish, muammolar yechimini izlash, topish va xulosalash majburiyati bilan yuzma-yuz keladi" [6;25]. Talaba topgan yechimini (fikrni) ifodalash (so'z, gap, ko'chirma va o'zlashtirma gap), zaruriyatini, ifodalay bilishi mashaqqatini anglash va o'zidan qoniqishni his qilish ta'limda tarbiyaviylik tamoyilining amaliy samarasi hisoblanadi.

2) Ilmiylik va tushunarliklik tamoyillari. Metodikada ilmiylik tamoyili – o'quv predmetlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilishni talab etsa, tushunarliklik tamoyili o'quv predmetlarini o'rganuvchining yoshi, shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribalari, tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni, ya'ni oddiydan murakkabga, xususiyan umumiyga borishni taqozo qiladi [6; 26].

Ushbu tamoyillar bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi, o'zaro bir-birini to'ldiradi va mashg'ulot samaradorligini oshiradi: fandagi tushuncha va terminlar ma'nosini sharhlash, tahlilga tortish va samarali o'zlashtirishni ta'minlash; til sathlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish; til va nutqni farqlab o'rganishning usul va vositalarini topish va amaliyotda qo'llash; talabalarining yosh va imkoniyatlarini hisobga olish, mustaqil ijodiy fikrlash, uning mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma tarzda to'g'ri, sodda, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan lingvopsixologik o'yin – topshiriqlardan foydalanish ko'zda tutiladi.

3) Onglilik tamoyili. Onglilik bilimlarni ongli o'zlashtirishga yo'naltirilgan tamoyildir. U ta'limning asosiy maqsadi, hayot uchun zaruriyligini anglash; daliliy materiallarni ongli egallash va o'zaro farqlay olish; bilimlarni o'rganish, mustahkamlash, takrorlash; egallangan va o'zi erishgan natijalarni baholay bilish xususiyatlarini tarbiyalaydi [6;26-27].

4) Faollik tamoyili faollik orqali talaba ta'limning faol sub'yektiga aylanadi. Mustaqillik faollik uchun sharoit yaratsa, faollik mustaqillikni tarbiyalashga asos bo'ladi. Kishining mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishi mustaqil fikrlashi orqaligina amalga oshirilishi hech kimga sir emas [5].

A. Disterveg "Ta'lim haqiqat, ezigulik va go'zallikka xizmat qiladi, ushbu jihatlar xarakter va ishonchni tarbiyalaydi", deya ta'kidlaydi [7].

Mutaxassislar mashg'ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etish, qo'yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, o'quv jarayonini boshqarish, mustaqillik va faollikni tarbiyalashini qayd etib, bunda quyidagi jihatlar alohida e'tirof etilgan:

– o'zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi;

– talabada o'z kuchiga, o'z bilim va imkoniyatlariga ishonchni mustahkamlaydi;

– bilim, hissiy aniq tasavvur hosil qilish bilan birga ta'rif-u tasniflarning mohiyatini anglashga, tasavvurni tushuncha darajasida o'zlashtirishga olib boradi.

5) Izchillik va tizimlilik tamoyili. Bunda asosiy e'tibor talabalardagi ijodiy fikrini mustaqil, tizimli bildirishga, so'z boyligini oshirish hamda matnni shakllantirish ko'nikmasini oshirishga yo'naltirishi lozim. Talaba til imkoniyatidan samarali foydalanib mashg'ulotlarda mustaqil va ijodiy yondashishi, so'z boyligini yanada takomillashtirishi lozim.

Y.A. Komenskiy ta'kidlaganidek "Dars mashg'ulotini shunday tashkillashtirish lozimki, unda hozir o'rganiladigan manbaa keyingisini, keyin o'rganiladigan manba oldingilarini

mustahkamlasin” [8]. Talabalarning nutqiy tayyorgarlik darajasini hisobga olib ularning o’rganilgan va o’rganiladigan bilimlarining o’zaro bog’liqligining ta’minlanishiga izchillik tamoyili asosidagina erishiladi.

6) Ko’rsatmalilik tamoyili. Ta’limda ko’rsatmalilikdan foydalanish – o’tiladigan mavzuni zohiriy ifodalash, egallangan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash yuzasidan belgilanadi. Narsa-buyumlar, hodisalarni bevosita kuzatish, ushlab ularning mantiq-mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qilsa, ko’rilganlarni og’zaki ifodalash ehtiyoji esa talabalarda botiniy, mustaqil mushohada ko’nikmasini rivojlantirishga, birlamchi nutqiy malakalarining hosil bo’lishiga yordam beradi [6;28].

Yuqorida keltirib o’tilgan tamoyillar va ularning ahamiyati haqida aytar ekanmiz, bizning fikrimizcha, ayni vaqtda talabalarga xorijiy tillarni o’qitishda 4 ta prinsiplar asosiy o’rinni egallaydi; lingvistik, kognitiv, onglilik va ko’rsatmalilik prinsiplari, ma’lumki, ona tilida o’rgatilgan, orttirilgan ko’nikma va malakalarimiz bizga so’zlarni o’zaro bog’lashni, gaplar tuzishni, zamonlardan foydalanishni hech qachon o’ylanmasdan, avtomatik amalga oshirishga yordam beradi. Kognitiv tamoyillar orqali talabani o’ziga bo’lgan ishonchi va mavzuni o’zlashtirishda unga yordam beruvchi ichki va tashqi motivatsiya hisobga olinadi.

XULOSA

O’qitish jarayonini tashkillashtirishda, o’rganishning boshlang’ich bosqichida darsda muloqot o’qituvchi va talaba, talaba bilan talaba o’rtasidagi dialog shaklida quriladi, yangi o’rganilgan ibora va yangi so’zlar orqali muloqot kuchayadi va asta-sekin murakkablashadi. Bu jarayonda ko’proq “pastdan” “yuqoriga” ko’tarilish samaralidir.

Bizning fikrimizcha, chet tilini o’rganish ona tilidagi muloqot madaniyatiga ham foydali ta’sir ko’rsatadi. Shunday qilib, chet tilida nutq malakalarini shakllantirish talabalarning barcha darajadagi nutq faoliyati turlarini rivojlantirishga yordam beradi: talabalar har bir harakatning maqsadlarini ifodalangan mazmun va mavjud til vositalari bilan bog’lab, nutq xatti-harakatlarini rejalashtirishni o’rganadilar. Bu esa talaba ega bo’lgan bilim miqdorini emas, balki uning shaxsiyatini tarbiyalash va madaniyatlararo o’zaro munosabatlar uchun ko’nikma va malakalari, qobiliyatlarni rivojlantirishga va takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. T.O.Sobirova Oliy ta’limda chet tili o’qitish metodikasi. chet til o’qitish metodikasining umumdidaktik prinsiplari //ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – S. 187
2. Пассов Э.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. – М.: «Русский язык», 1989, 277 с.
3. Гурвич П.Б. О четырех общеметодических принципах обучения иностранным языкам // Иностранные языки в школе. –2003. №6. С.32 – 37.
4. Larsen – Freeman, D. Techniques and Principles in Language Teaching. – 2nd ed Oxford: Oxford University Press, 2000. –P. 55.
5. U.Bobojonova , N.B.Hasanova Ona tilini o’qitishning umumdidaktik va o’ziga xos prinsiplari //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 8. – S. 772-782.
6. B.To’xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova O’zbek tili o’qitish metodikasi. – 2006. B.25.
7. Дистерверг А. Избранные педагогические сочинения. – М.: Учпедгиз, 1956. – С. 175.
8. Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения. М.: 1982. 267 с.